



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO'MITASI

100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko'chasi, 13 A  
Tel: (71) 244-97-16, Faks: (71) 244-89-12

2021 yil "14" dekabr

20/5-75422 - son

### Tadbirkorlik subyektlariga (ro'yxat bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-sон qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini onlayn-NKM yoki virtual kassadan foydalanishga o'tkazildi.

Onlayn-NKM va virtual kassa foydalanuvchilari talab va istaklaridan kelib chiqib, tovarlarni "**Bo'lib to'lash**", "**Kredit**" shartnomalari va "**Bo'nak (avans)**" hamda vositachi orqali sotilgan tovar va xizmatlar uchun "**komitent STIR**" asosida sotishda hisob-kitoblarni to'g'ri olib borilishini ta'minlash maqsadida, markaz tomonidan onlayn-NKM va virtual kassalar uchun yangi versiyadagi dasturiy mahsulot ishlab chiqildi va Davlat reestriga kiritilgan onlayn-NKM va virtual kassa ishlab chiqaruvchilari bilan integratsiya qilindi.

Shuningdek, soliq to'lovchilarning shaxsiy kabineti ([my.soliq.uz](http://my.soliq.uz))da onlayn-NKM va virtual kassa chek (**Kredit, avans va komitent STIR**) ma'lumotlarini soliq hisobotlarida to'g'ri aks ettirish bo'yicha tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Davlat soliq qo'mitasining rasmiy [soliq.uz](http://soliq.uz) saytida onlayn-NKM va virtual kassa chek ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar haqida batafsil ma'lumot [e'lon qilingan](#).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Sizzdan joriy yil 20-dekabriga qadar onlayn-NKM yoki virtual kassaga Texnik xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilgan holda qurilmaga tegishli dasturiy mahsulotning yangilangan versiyasini o'rnatish va taqdim etilgan chek (**Bo'lib to'lash, Kredit, avans va komitent STIR**) ma'lumotlarini soliq hisobotlarida to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash so'raladi.

Shu bilan birga, 2021-yil dekabr oyidan boshlab tadbirkorlik sub'ektlarining soliq hisobotlari avtomatik ravishda soliq organlarida mavjud ma'lumotlar asosida, shu jumladan onlayn-NKM yoki virtual kassa cheklari summalarini asosida shakllantirilishi haqida ogohlantiramiz.

Rais o'rinnbosari



A.Fayzibayev